

# Bemorni Qanday Parvarishlash Kerak

**4**  
BOB


Kasallik organizmni kuchsizlantiradi. Bemor kuch-quvvat to'plash va tezroq davo topishi uchun uni maxsus parvarish qilish lozim.

**Bemorni parvarishlash odatda davolashning eng muhim qismidir.**

Dorilar hamisha ham zarur bo'lavermaydi. Lekin yaxshi parvarish doim muhimdir. Quyida bemorni yaxshi parvarishlash asoslari ko'rsatib o'tiladi:

## BEMORGA QULAYLIKLAR YARATISH

Bemor tinch, qulay, toza havoli va yorug' joyda dam olishi kerak. Uni juda sovqotish yoki isib ketishdan saqlang.



Agar havo sovuq bo'lsa yoki kasal sovqotsa, uning ustiga choyshab yoki ko'rpa tashlab qo'ying. Agar havo issiq bo'lsa va kasalning isitmasi bo'lsa, uning ustini ochib qo'ying (167-bet).



## SUYUQLIKLAR

Deyarli barcha kasalliklarda, ayniqsa, isitma yoki ichketar paytlarda, kasal ko'proq suyuqlik ichishi kerak: suv, choy, sharbat, sho'rva va boshqalar.

## SHAXSIY TOZALIK

Bemorni toza tutish muhim. U har kuni cho`miltirilishi kerak. Agar u yotgan joyidan tura olmaydigan darajada kasal bo`lsa, badanini iliq suvda namlangan yumshoq sochiq bilan arting. Uning ust-boshlari, choyshablari va ustiga yopiladigan narsalari ham toza tutilishi kerak. Bemor yotgan joyga ovqat bo`laklari va ushoqlar tushib qolmaganiga e`tibor bering.



BEMORNI HAR KUNI  
CHO`MILTIRING

## YAXSHI OVQATLANISH

Agar bemorning qorni ochsa, unga ovqat bering.

Ko`p kasalliklarda maxsus parhez talab qilinmaydi.

Bemor ko`p suyuqlik ichishi va foydali moddalarga boy ovqatlardan ko`proq iste`mol qilishi kerak (11-Bob).

Agar bemor juda quvvatsiz bo`lsa, unga iloji boricha tez-tez to`yimli ovqatlardan berib turing. Kerak bo`lsa ovqatlarni ezib yoki sho`rva, sharbatlarga qo`shib bering.



Guruch, bug`doy, suli, kartoshkani ezib, yumshoq bo`tqa (pyure) holdida berilsa, ancha quvvat bo`ladi. Unga shakar va o`simlik yog`idan qo`shish ozuqa quvvatini oshiradi. Bemor ovqat yemasa uni shirin ichimliklar ichishga undang.

## Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Ba`zi kasalliklar maxsus parhez talab qiladi. Ular quyidagi betlarda ko`rsatilgan:

oshqozon yarasi va zarda bo`lish.....	316-321 betlar
appenditsit, ichak tutilishi, "o`tkir qorin" (bu hollarda umuman ovqat yemang).....	196-197
qand kasalligi (diabet).....	248
yurak kasalliklari.....	580
o`t pufagi muammolari .....	586

## JUDA OG`IR KASALNI PARVARISH QILISH

### SUYUQLIKLAR

Og`ir kasalning ko`p suyuqlik ichishi muhimdir. Agar u ko`p icha olmasa, unga tez-tez kichik ho`plamlarda suyuqlik berib turing. Agar u zo`rg`a yutina olsa, unga har 5-10 min.da og`ziga tomchilab suyuqlik tomizib turing.



### OVQAT

Bemor quyuc ovqatlarni iste`mol qila olmasa, unga sho`rva, sut, sharbat va boshqa suyuq ovqatlardan ichiring (11-bob). Don, suli yoki guruchdan tayorlangan bo`tqa ham yaxshi, lekin ular "tana o`stiruvchi" ovqatlar bilan birgalikda berilishi kerak. Sho`rvalarga tuxum, loviya yoki yaxshi qiymalangan go`sht, baliq yoki tovuq go`shti solinishi mumkin. Agar bemor birdaniga ko`p yeya olmasa, tez-tez oz-ozdan ovqat yeb turiishi kerak.

### TOZALIK VA BEMOR HOLATINI O`ZGARTIRISH

Og`ir yotgan kasal uchun shaxsiy tozalikka e`tibor berish muhimdir. U har kuni iliq suvda cho`miltirilishi kerak.

Choyshablarini tez-tez, har kuni almashtirib turing. Agar ular kir bo`lsa, tezroq almashtirish kerak. Infekcion kasallik bilan og`rigan bemorning kir yoki qon tegib qolgan choyshablari, ust-boshlari va sochiqlari ehtiyotkorlik bilan yig`ishtirilishi kerak. Ulardagi virus yoki mikroblarni

o`ldirish uchun ularni sovunli suvga yoki biroz xlorli ohak qo`shilgan issiq suvga solib yuving.

### Bemor Holatini O`zgartirish

Joyidan siljiy olmaydigan bemorlar kuniga bir necha mahal yotish holatlarini o`zgartirishlariga siz yordam berishingiz kerak. Bu esa yotoq yaralarning oldini olishga yordam beradi (400-bet).

Uzoq vaqtdan beri kasal bolaning onasi uni tez-tez ko`tarib turishi kerak.

Holatning tez-tez o`zgartirilishi uzoq vaqt o`rnida yotishga majbur odamlar uchun katta xavf bo`lgan zotiljam (pnevmoniya) dan ham saqlaydi. Agar bemor isitmasi ko`tarilib, yo`talayotgan va hansirab tez-tez nafas olayotgan bo`lsa, unda o`pka shamollashi (pnevmoniya) boshlangan bo`lishi mumkin (315-bet).


### BEMORDAGI O`ZGARISHLARNI KUZATIB BORISH

Siz bemorning ahvolidagi har qanday o`zgarishlarga katta e`tibor berishingiz kerak. Bu o`zgarishlar bemorning ahvolini yaxshilanayotgan yoki yomonlashayotganini sizga bildirib turadi. Uning „hayot belgilari“ jadvalini tuting. Quyidagi o`zgarishlarni kuniga 4 mahal yozib boring:

tana harorati  
(necha gradus)



minutdagi pulslar soni



nafas olishi  
(minutiga necha marta)



Shuningdek, u kuniga qancha suyuqlik ichgani va ichagi bilan qovug`i necha marta bo`shaganini ham yozib yuring. Ushbu ma`lumotlarni tibbiyot xodimi uchun saqlang.

Bemorning kasali jiddiylashib yoki og`irlashib borayotganini bildiruvchi **belgilarni kuzating**. “Xavfli Kasalliklar belgilari” jadvali keyingi betda berilgan. Agar bemorda ushbu belgilardan birortasi bo`lsa, **tezda tibbiy yordamga murojaat qiling**.

## XAVFLI KASALLIKLAR BELGILARI



Quyidagi belgilardan biri yoki bir nechtasi bor kasallar uyda davolanishi mumkin emas, ularga malakali tibbiy yordam kerakdir. Bemor hayoti xavf ostida bo'lishi mumkin. **Iloji boricha tezroq tibbiy yordamga murojaat qiling.** Yordam etib kelgunga qadar ko'rsatilgan betlardagi yo'l-yo'riqlarga amal qiling.

### Betlar

1. Tananing biror qismidan ko'p miqdorda qon yo'qotish ..... 177, 484, 508
2. Qon bilan yo'talish ..... 311, 342
3. Lab va tirnoqlarning ko'karib ketishi  
(oldin bunday bo'lmagan bo'lsa) ..... 100
4. Nafas olishga qiynalish; dam olish bilan yaxshilanmasa ..... 308, 580
5. Siz bemorni uyg'ota olmasangiz (koma) ..... 171
6. Kasal juda kuchsiz, hatto turganda ham  
hushidan ketadigan darajada bo'lsa ..... 171
7. Bir yoki ko'proq kundan beri siya olmaslik ..... 433
8. Bir yoki ko'proq kundan beri hech narsa icha olmaslik ..... 281
9. Kattalarda bir kun, chaqaloqlarda bir necha soatdan ortiq  
davom etayotgan kuchli qayt qilish yoki ich ketishi ..... 281
10. Qorasaqich kabi qora axlat, qonli yoki axlat bilan qayt qilishlar ..... 316-320
11. Ichi kelmayotgan yoki bir necha kundan beri ichi kelmagan  
odamdagi qattiq va doimiy qorin og'riqlari; qayt qilish bilan ..... 193
12. 3 kundan ortiq davom etadigan qattiq doimiy og'riq ..... 3-bob
13. Egilib qolgan bel, qotib qolgan bo'yin, jag' qotib qolishi ..... 347-350
14. Biror odamda isitmadan yoki jiddiy kasallikdan tutqanoq tutishi ..... 168, 351
15. Pastlamayotgan yoki 4-5 kundan beri davom etayotgan  
yuqori harorat (39 dan ortiq) ..... 167
16. Uzoq vaqt mobaynida davom etayotgan vazn kamayishi ..... 90, 734
17. Siydikdagi qon ..... 271, 433
18. O'sib borayotgan va davolab bo'lmaydigan yaralar ..... 359, 374, 396, 397
19. Tananing biror qismidagi o'sib borayotgan shish ..... 374, 506
20. Homiladorlik va tug'ish vaqtidagi muammolar:  
homiladorlik davridagi har qanday qon ketish ..... 461, 508

oxirgi oylardagi shishgan yuz va ko`rish qobiliyatini susayishi .....	461
suv ketgandan so`ng uzoqlashib ketgan tug`ruq faoliyati .....	487
og`ir qon ketishi .....	484

## TIBBIY YORDAMGA QANDAY VA QACHON MUROJAAT QILISH KERAK

Xavfli kasallikning birinchi belgilari paydo bo`lishi bilan darhol tibbiy yordamga murojaat qiling. Bemorning ahvoli juda yomonlashgunga qadar kutmang. Uni tezda shifoxonaga olib boring.

Agar bemorning jarohati bo`lsa, uni shifoxonagacha olib borish turli shikastlarga olib kelishi mumkin, shuning uchun tibbiyot xodimini bemor oldiga olib kelishga urining. Lekin juda shoshilinch, operatsiya kerak bo`lgan hollarda (masalan, appenditsit) tibbiyot xodimini kutib o`tirmang. Bemorni darhol shifoxonaga olib boring.

Agar bemorni zambilda ko`tarish kerak bo`lib qolsa, u iloji boricha qulay va tushib ketmaydigan qilib joylashtirilishiga e`tibor bering. Uning biror suyagi singan bo`lsa, o`sha suyak xarakatlanmaydigan qilib ehtiyotkorlik bilan bog`lab qo`ying (201-bet). Agar quyosh juda qizdiradigan bo`lsa, zambil ustini havo o`tkazadigan choyshab bilan yopib soyabon qiling.



## TIBBIYOT XODIMIGA NIMA DEB MUROJAAT QILISH KERAK

Tibbiyot xodimi davo usuli va dorilarni to`g`ri tanlab, tayinlaydigan bo`lishi uchun bemorni tekshirishi kerak. Agar bemorni siljitib bo`lmasa, tibbiyot xodimini uning oldiga olib keling. Buning iloji bo`lmasa, kasallik

## Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

haqida to'la ma'lumotga ega bo'lgan **mas'uliyatli odamni shifokor oldi-ga jo'nating.**

Tibbiy yordamga jo'natishdan avval bemorni asta va to'la tekshiring. So'ng uning umumiy ahvolini batafsil yozib qo'ying (3-bob).

Keyingi betda "Bemorning ahvoli haqidagi Hisobot"ni yozishingiz mumkin bo'lgan jadval namunasi berilgan. Ushbu jadvallardan nusxa ko'chirib tayyorlab qo'ying va kerak paytda undan foydalaning. Iloji bo-richa barcha tafsilotlarni bayon etgan holda ehtiyotkorlik bilan harakat qiling.

**Biror odamni tibbiy yordamga jo'natayotgan paytingizda bemorning ahvoli haqidagi „ma'lumotlar jadvalini“ ham u bilan qo'shib jo'nating**

### Bemorning ahvoli haqida HISOBOT

Tibbiy yordamga jo'natilganda foydalanish uchun

Kasal odamning ismi: \_\_\_\_\_Yoshi:

Erkak Ayol \_\_\_\_\_ U qayeda? \_\_\_\_\_

Hozirgi paytdagi asosiy muammosi yoki kasalligi

U qachon boshlandi \_\_\_\_\_

U qanday boshlandi \_\_\_\_\_

Bemorda oldin ham bunday muammo bo'lganmi \_\_\_\_\_ Qa-  
chon \_\_\_\_\_

Isitmasi bormi Qanchalik yuqori \_\_\_\_\_ Qachondan  
beri \_\_\_\_\_

Og`riq bormi \_\_\_\_\_ Qayerda? \_\_\_\_\_ Qan-  
day? \_\_\_\_\_

Quyidagilardan qaysi birida o`zgarishga uchragan yoki odatdagi holatdan nima bilan farq qiladi?

**Teri:** \_\_\_\_\_ **Quloqlar:** \_\_\_\_\_

**Ko`zlar:** \_\_\_\_\_ **Og`iz va tomoq:** \_\_\_\_\_

**Jinsiy organlar:** \_\_\_\_\_

**Siydik:** Ozmi, ko`pmi \_\_\_\_\_ Rangi \_\_\_\_\_ Siyishga qiynalyap-  
timi \_\_\_\_\_

**Tafsiloti:** 24 soat ichida necha marta Kechasi necha mahal \_

**Axlati:** Rangi? \_\_\_\_\_ Qon yoki shilimshilik bormi? Ich  
ketish? \_\_\_\_\_

**Kuniga necha mahal:** \_\_\_\_\_ Burab og`rishlar \_\_\_\_\_ Suvsi-  
zlanish \_\_\_\_\_

Oddiy yoki Og`ir \_\_\_\_\_ Qurtlar \_\_\_\_\_ Qaysi  
turi \_\_\_\_\_

**Nafas olishi:** Minutiga necha marta: \_\_\_\_\_ Chuqur, sayoz yoki nor-  
mal? \_\_\_\_\_

Nafas olishga qiynalish (tasvirlang): \_\_\_\_\_ yo`tal (tas-  
virlang) \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ Shovqin \_\_\_\_\_ Bal-  
g`am \_\_\_\_\_ Qonli \_\_\_\_\_

Bemorda 66-betda aytilgan XAVFLI KASALLIKLAR BELGILARIdan biri  
bormi \_\_\_\_\_

Qaysi? (to`la ma`lumot) \_\_\_\_\_